

FARMATSEVTIK DORI SHAKLLARI TERMINLARNING KELIB CHIQISHI

*Navoiy davlat universiteti Tibbiyot
fakulteti Davolash ishi yo'nalishi*

Safarboyeva Yodgora Erkin qizi 1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Turdiyev Shuhrat Berdiyevich

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada farmatsevtik dori shakllarining kelib chiqishi, asosiy farmatsevtik terminlar yunon hamda lotin tillaridan o'zlashganligi, dorilarning shakllari, zamonaviy farmakologiyada lotin tilining o'rni haqida ma'lumot berib o'tiladi.

Kalit so'zlar : retsept, terminlar, kapsula, tabletka, kukun, surtma

Kirish

Farmatsevtika fani dori vositalarini tayyorlash, saqlash, tarqatish va qo'llash bilan shug'ullanuvchi muhim tibbiy sohalardan biri hisoblanadi. Dori vositalarining samaradorligi nafaqat ularning kimyoviy tarkibiga, balki dori shakliga ham bevosita bog'liqdir. Shu sababli farmatsevtik dori shakllari va ularni ifodalovchi terminlar kelib chiqishi muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Asosiy qism

Farmatsevtik terminologiya asosan lotin va yunon tillariga tayanadi. Bu tillar qadimdan ilm-fan, ayniqsa tibbiyot va farmatsiya sohaslarining asosiy ilmiy tillari hisoblangan.

Farmatsevtik terminologiyaning shakllanish tarixi

Farmatsevtik terminologiya qadimgi sivilizatsiyalar davridayoq shakllana boshlagan. Qadimgi Misr, Hindiston, Xitoy va ayniqsa Yunoniston tibbiyotida dorilar va ularning shakllari haqida dastlabki ilmiy tushunchalar paydo bo'lgan deyiladi. Gippokrat, Galen kabi olimlar dorilarni ma'lum shakllarda tayyorlashni tavsiya etganlar. Keyinchalik Rim imperiyasi davrida lotin tili ilmiy til sifatida keng qo'llanila boshladi. O'rta asrlarda esa arab tabobati rivojlanib, ko'plab farmatsevtik terminlar arab tilidan lotin tiliga tarjima qilindi. Natijada farmatsevtik terminologiya ko'p manbali bo'lib shakllandi.

Lotin tilining farmatsevtik terminologiyadagi o'rni

Lotin tili bugungi kungacha farmatsevtikada rasmiy va universal til hisoblanib keladi. Dori shakllarining nomlari, retseptlar, farmakologik terminlar asosan lotin tilida beriladi. Lotincha terminlar aniq, qisqa va xalqaro miqyosda tushunarli bo'lgani bugungi kungacha o'z ahamiyatini saqlanib qolgan.

Masalan :

Lotincha farmatsevtik terminlar	O'zbekcha tarjimasi
Capsula	Kapsula
Tabuletta	Tabletka
Solutio	Eritma
Unguentum	Surtma
Pulvis	Kukun

Lotin tili grammatik jihatdan qat'iy hisoblanadigan til bo'lganligi uchun terminlarda hech qanday muammoga duch kelmaymiz.

Yunon tilidan kelib chiqqan farmatsevtik terminlar

Yunon tili ilmiy tushunchalarning asosiy manbai hisoblanadi. Ko'plab farmatsevtik va tibbiy terminlar yunoncha ildizlardan tashkil topgan.

Misollar:

Farmatsevtik atamalar	Yunoncha ildiz	O'zbekcha tarjimasi
Emulsio	emulsio	suyultirilgan aralashma
Suspensio	suspensio	muallaq holatdagi suyuqlik
Aerosolum	aer+solutio	havo orqali purkaladigan dori
Linimentum	leinein	surtma
Mucilago	myxa	shilimshiq eritma

Yunon tilidagi terminlar asosan jarayon, holat va tuzilmani ifodalaydi.

Asosiy dori shakllari va ularning etimologiyasi

Qattiq dori shakllari

- Tabletta – lotincha tabula (yassi shakl)
- Pulvis – lotincha “kukun”
- Granula – granum (donacha)
- Capsula - jelatin qobiq ichiga joylashtirilgan qattiq yoki yarim

qattiq dori

Bu shakllar uzoq muddat saqlanishi va aniq dozalanishi bilan ajralib turadi.

Yumshoq dori shakllari

- Unguentum – ungere (surtmoq)
- Krem (Cremor) – suv va yog' aralashmasidan iborat
- Gel (Gelum) – suv asosida tayyorlangan, tez so'riladi
- Pasta (Pasta) – qattiq moddalarga boy quyuq maz

Yumshoq shakllar asosan tashqi qo'llash uchun mo'ljallangan.

Suyuqlik dori shakllari

- Solutio – eritma
- Infusae- damlama (o'simlik xomashyosi spirt yordamida tayyorlanadi)
- Guttae - tomchi ko'z, burun, quloq organlariga tomizish uchun
- Decoctae - qaynatma (o'simliklardan suv yordamida tayyorlanadi)

Suyuqlik shakllar tez so'rilish xususiyatiga ega.

Gazsimon va maxsus dori shakllari

- Aerosolum – havo orqali purkaladigan dori
- Spray – inglizcha kelib chiqishga ega zamonaviy termin
- Kislorod (O_2) — gipoksiya, nafas yetishmovchiligida
- Azot oksidi (N_2O) — og'riqsizlantiruvchi va narkoz vositasi

Bu shakllar texnologiya rivoji bilan bog'liq holda paydo bo'lgan.

Arab tilining farmatsevtik terminlarga ta'siri.

O'rta asrlarda arab tabobati yuqori darajada rivojlangan. Ibn Sino, Ar-Roziy kabi olimlar farmatsiyaga katta hissa qo'shgan. Natijada quyidagi terminlar paydo bo'lgan:

1. Sirupus – sharbat
2. Elixir – shifobaxsh suyuqlik

Alcohol – kukun (keyinchalik spirt ma'nosini olgan)

Bu terminlar lotin tili orqali Yevropaga tarqalgan.

Zamonaviy farmatsiyada terminlarning ahamiyati

- xalqaro aloqa vositasi
- dori xavfsizligini ta'minlash omili
- ta'lim va ilmiy tadqiqotlar asosi hisoblanadi

Terminlarning kelib chiqishini bilish farmatsevt va tibbiyot xodimlariga ularni to'g'ri tushunish va qo'llash imkonini beradi.

Xulosa

Farmatsevtik dori shakllari terminlarining kelib chiqishini o'rganish tibbiyot va farmatsiya fanlarining tarixiy rivojlanishi, ilmiy asoslari hamda terminologik tizimining shakllanishini chuqurroq anglash imkonini beradi. Bir so'z bilan aytganda, farmatsevtik dori shakllari terminlarining kelib chiqishini o'rganish nafaqat tilshunoslik nuqtayi nazaridan, balki klinik va amaliy jihatdan ham muhim bo'lib, u farmatsiya sohasida yagona, aniq va xalqaro darajada tushunarli terminologiyani shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi.

2. Farmatsiya va dori vositalari bo'yicha me'yoriy hujjatlar to'plami. – Toshkent, 2022.
3. Farmakopeya.
4. Davlat farmakopeyasi. – Toshkent: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2021.
5. Ibn Sino A.A.
6. Tib qonunlari (Al-Qonun fi-t-tibb). – Toshkent: Fan, 2000.
7. Halimov A.H., To'xtayev M.B.
8. Farmatsevtik texnologiya. – Toshkent: Ilm Ziya, 2019.
9. Tursunov N.T.
10. Dori shakllari va ularning tasnifi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
11. Remington J.P.
12. Remington: The Science and Practice of Pharmacy. – 22nd edition. – London: Pharmaceutical Press, 2013.
13. Sinko P.J.
14. Martin's Physical Pharmacy and Pharmaceutical Sciences. – 6th edition. – Philadelphia: Lippincott Williams & Wilkins, 2011.
15. Dorland's Illustrated Medical Dictionary.
16. – 32nd edition. – Elsevier Saunders, 2012.
17. Lotincha–o'zbekcha tibbiy terminlar lug'ati.
18. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017.
19. Yunoncha–lotincha tibbiy atamalar asoslari.
20. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.